



## XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)

2022 - yil 9 - dekabr

VI-41-153-9-0-K/22

Sirdaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining bo‘shab qolgan “1-Madaniyat”, “4-Namuna” hamda “41-Darvozaqir” saylov okruglari uchun deputatlik o‘rinlariga saylov kunini belgilash to‘g‘risida**

Saylov kodeksining 93-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. Guliston shahridagi “1-Madaniyat”, “4-Namuna” hamda Boyovut tumanidagi “41-Darvozaqir” saylov okruglari bo‘yicha bo‘shab qolgan o‘rinlarga Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputatligiga saylov 2023-yil 5-fevral (yakshanba) kuni o‘tkazilishi belgilansin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi (S.Sattorov) Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati saylovini O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi talablari asosida amalga oshirsin.

3. Viloyat moliya bosh boshqarmasi (F.Kushkov)ga Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq viloyat mahalliy byudjeti daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi yoki erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasiga mablag‘ ajratish vazifasi yuklansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashi hamda saylov o‘tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi (S.Sattorov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi D.Abdullayeva zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi**



**A.Abduraxmanov**